PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI
ISSN: 3060-4923 Impact Factor –7,212

INNOVASION TALIM MUHITIDA BO‘LAJAK O’QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH MODELI

Ikromova Madinaxon Baxtiyorjon qizi
Qo‘qon DU tayanch doktoranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada innovasion ta’lim muhitida bo‘lajak o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish modeli ishlab chiqilganligi, uning nazariy-metodologik asoslari, kreativlik tushunchasining pedagogik mohiyati, innovasion ta’lim texnologiyalarining imkoniyatlari hamda kreativ kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir etuvchi omillar, shuningdek, bo‘lajak pedagoglarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiluvchi didaktik prinsiplar, interaktiv metodlar va integrativ yondashuvlar asosida modelning tarkibiy qismlari bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье описывается разработка модели развития креативности будущих учителей в инновационной образовательной среде, ее теоретические и методические основы, педагогическая сущность понятия креативности, возможности инновационных образовательных технологий и факторы, влияющие на формирование творческих компетенций, а также компоненты модели, основанные на дидактических принципах, интерактивных методах и интегративных подходах, которые служат развитию творческого мышления будущих учителей.

Annotation

This article describes the development of a model for the creativity of future teachers in an innovative educational environment, its theoretical and methodological foundations, the pedagogical essence of the concept of creativity, the possibilities of innovative educational technologies and factors affecting the formation of creative competencies, as well as the components of the model based on didactic principles, interactive methods and integrative approaches.

Kalit so‘zlar: innovasion ta’lim muhiti, kreativlik, kreativ kompetensiya, innovasion yondashuv, ta’lim texnologiyalari, interfaol metodlar, innovasion pedagogika, integrativ yondashuv, refleksiya, ijodiy faoliyat, pedagogik model.

Ключевые слова: инновационная образовательная среда, креативность, креативная компетентность, инновационный подход, образовательные технологии, интерактивные методы, инновационная педагогика, интегративный подход, рефлексия, творческая деятельность, педагогическая модель..

Keywords: innovative learning environment, creativity, creative competence, innovative approach, educational technologies, interactive methods, innovative pedagogy, integrative approach, reflection, creative activity, pedagogical model.

KIRISH.

Oliy ta'limning bugungi tamoyillaridan biri - bu innovasion ta'lim muhitini yaratish va isloh qilish uchun bo‘lajak mutaxassis va murabbiylarni yuqori malakali, ijodkor mutaxassislar tayyorlash bo‘yicha oliy ta'lim muassasalarining faoliyatini uyg‘unlashtirish, kreativ yondashuv asosida pedagogik innovasiyalarni ta'lim jarayoniga qo‘llash hisoblanadi. Innovasion faoliyat – bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbini takomillashtirishdagi mavjud shakl va vositalarni egallashga ijodiy yondashuvini nazarda tutadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida “innovatsion ta’lim muhit” deganda ta’lim jarayonida texnologik, metodologik va gumanitar yangiliklar asosida yaratilgan sharoitlar tushuniladi. Masalan, pedagogik ta’lim doirasida bu muhit o‘quvchilarga va o‘qituvchilarga ijodiy sinov-xatar, multidisiplinar

yondashuv va raqamli vositalar orqali faol o‘rganishni ta’minlaydigan maydon bo‘lishi lozim. Pedagogika ta’limida esa kreativlik ko‘pincha “yangilik kiritish” va “mavjud musiqiy tajribani transformatsiyalash” qobiliyati sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Kreativlik zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda shaxsning yangicha fikrlashi, nostandart yechimlar topa olishi hamda ijodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Innovasion ta’lim muhitida bo‘lajak pedagogika fani o‘qituvchilarining kreativligini rivojlantirish masalasi bugungi kunda pedagogika va psixologiya fanlarining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi[2].

METODLAR. Zamonaviy o’qituvchi kelajak bunyodkoridir shu bilan birga ta’lim islohotining bosh ijrosi hamdir. Bunda har bir o’qituvchini qisqa vaqt ichida juda katta miqdordagi axborot to’plamini o’zlashtirish, qayta ishlash va amalda qo’llay olishga o’rgatish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik texnologiya asosida o’tkazilgan mashg`ulotlar yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan, ma`nan yetuk, barkamol shaxslarga aylantiradi. Shuning uchun ham ta`lim muassasalaridagi ta`lim-tarbiya jarayonida zamonaviy o’qitish uslublari - interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati va o’rni beqiyosdir[4].

Pedagogning asosiy vazifasi faqat ta`lim berish emas, balki boshqaruvchilikdan ham iborat bo’lib, u ta`lim jarayonini to’g`ri tashkil qilishi va boshqarishi, ta`lim-tarbiya jarayoniga yangiliklarni uzluksiz kirita olishi ya`ni innovatsion faoliyat yuritishi talab etiladi[3].

Bo‘lajak o’qituvchilar mashg‘ulotlarda quyidagi ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni tavsiya etamiz:

- loyihaga asoslangan ta’lim: bu yondashuv talabalarni raqamli vositalar va texnologiyalardan foydalanishni talab qiladigan loyihalar ustida ishlashni o‘z ichiga oladi, ularni amaliy kontekstda raqamli bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga undaydi;

- hamkorlikdagi ta’lim: hamkorlikda o‘rganish talabalarning muloqot va hamkorlik qilish uchun raqamli vositalar hamda texnologiyalardan foydalangan holda muammolarni hal qilish va vazifalarni bajarish uchun guruhlarda birgalikda ishlashini o‘z ichiga oladi;

- teskari sinf: teskari sinfda talabalarga darsdan oldin raqamli manbalar va materiallardan foydalanish imkoniyati beriladi, bu ularga o‘z tezligida tarkibni tayyorlash va shug‘ullanish imkonini beradi. Keyin dars vaqti muhokama qilish, hamkorlik qilish va muammolarni hal qilish uchun ishlatiladi;

- shaxsiylashtirilgan ta’lim: shaxsiylashtirilgan ta’lim tajribasini taqdim etish uchun raqamli vositalar va texnologiyalardan foydalangan holda har bir talabaning individual ehtiyojlari hamda manfaatlarini qondirish uchun ko‘rsatmalar va resurslarni moslashtirishni o‘z ichiga oladi;

- so‘rovga asoslangan ta’lim: so‘rovga asoslangan ta’lim talabalarga savollar berish va mavzularni chuqur o‘rganish, raqamli vositalar hamda texnologiyalardan foydalanib, o‘zlari tanlagan mavzularni tadqiq qilish va tekshirishni o‘z ichiga oladi;

- aralashtirilgan ta’lim: aralashtirilgan ta’lim an'anaviy sinfdagi o‘qitishni onlayn ta’lim bilan birlashtiradi, raqamli vositalar va texnologiyalar yordamida ta’lim berish hamda talabalarning sinfda va undan tashqarida o‘rganishini qo‘llab-quvvatlaydi.

Shuning bilan birga, o’qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish jarayoni ularda quyidagi muhim kasbiy pedagogik sifatlarning namoyon bo’lishiga shart sharoit yaratib beradi.

Darslarda o’qituvchi quyidagi to’rtta yo’nalish bo’yicha harakatlanadi va undagi harakatlar pedagoglarning kreativligini ifodalovchi belgilar sanaladi:

- Ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini namoyon etish;

- Talabani o’quv fanlarini qiziqish bilan o’zlashtirishga rag`batlantiruvchi strategiyalardan foydalana olish;

- Innovatsion yondashuv va pedagogik masalalarning echimini topishga kreativ yondashish;

Pedagogning kreativlik potensiali ko'p darajali jarayon va u quyidagi tamoyillarga tayanadi. Pedagog kreativlik potensialining ustuvor tamoyillari kreativlikning yorqin namoyon bo'lishi quyidagilarda aks etadi[5]:

1.Shaxsning individual xususiyatlari va hayotiy faoliyatda

2.Individuallikka erishish

3.Birbutunlik, izchillik, tizimlilik va imkoniyatlarni oshirib borish

4.Ijodiy yo'naltirilganlik va muammoli xarakterga egalik

Pedagog-tarbiyachi o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik

qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o]zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega.

HATIJALAR VA MUHOKAMA. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur. O'zini o'zi ijodiy faollashtirish – shaxsning ijodiy faoliyatda o'z imkoniyatlarini to'laqonli namoyon qilishi va rivojlantirishining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki mashg'ulotlarni ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishga intilishi zarur.

Interfaol ta'lim o'qitish jarayonining asosiy ishtirokchilari – o'qituvchi, talaba va talabalar guruhi o'rtasida yuzaga keladigan hamkorlik, qizg'in bahs-munozalar, o'zaro fikr almashish imkoniyatiga egalik asosida tashkil etiladi, ularda erkin fikrlash, shaxsiy qarashlarini ikkilanmay bayon etish, muammoli vaziyatlarda yechimlarni birgalikda izlash, o'quv materiallarini o'zlashtirishda talabalarning o'zaro yaqinliklarini yuzaga keltirish, "o'qituvchi – talaba – talabalar guruhi"ning o'zaro bir-birlarini hurmat qilishlari, tushunishlari va qo'llab-quvvatlashlari, samimiy munosabatda bo'lishlari, ruhiy birlikka erishishlari kabilar bilan tavsiflanadi[3].

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish kasbiy pedagogik faoliyatda zarur bo'ladigan quyidagi omillarga e'tibor qaratishni taqozo etadi:

- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- o'qituvchi va hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish.

Har bir mutaxassisning o'qituvchi sifatida o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq. O'qituvchining kreativlik salohiyati uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'zo'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ salohiyat negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi. Kreativ salohiyat bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq.

Bugungi o'qituvchi o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishda avvalo rejalashtirilgan bir qolipdagi mashg'ulot turlaridan voz kechib, o'quvchilarda mustaqil, tanqidiy, mantiqiy, ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, ya'ni yangi g'oyalarni o'ylab topishga majbur qilish, ta'lim olishga bo'lgan munosabatni o'zgartirish, ularni yutuqlarga erishishiga rag'batlantirishda asosiy omil bo'lishi kerak. O'quv mashg'ulotlariga yetishmayotgan omil - kreativlik sanaladi. Bugungi kunda bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining ijodkor va kreativ bo'lishi yoki bo'lmasligi emas, balki ularning kasbiy faoliyatini ijodkorlik, kreativlik ruhida tashkil etishi, yangi g'oyalarni ta'lim jarayonida sinab ko'rishi maqsadga muvofiq[4].

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish quyidagi to'rt yo'nalish bo'yicha harakat qilishni talab qiladi:

1. O’qituvchilarning ijodiy fikrlash ko’nikmalarini namoyish etishi va erkin faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish;

2. O’quvchilar tomonidan o’quv fanlarini qiziqish bilan o’zlashtirishiga rag’batlantiruvchi strategiyani joriy etish;

3. Innovatsion yondashuv va pedagogik masala (muammolarning yechimi)ni topishda ijodiy yondashuvning ustivorligini ta’minlash;

4. Belgilangan ta’limiy-tarbiyaviy vazifalarni to’laqonli bajarish orqali kutiladigan natijaga erishish.

Innovasion talim muxitida bo‘lajak o’qituvchilarda kreativlikni shakllantirish va rivojlantirish o‘zida uch tarkibiy qismni: o‘qituvchi faoliyati, tahsil oluvchi faoliyati hamda o‘qituvchi va ta’lim oluvchilarning jadal o‘zaro faoliyatini aks ettiradi[6].

Bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini shakllantirish va rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi. Bunda nafaqat ularning shaxsiy sifatlari, balki ular faoliyat yuritadigan innovatsion muhitning texnik, ta’limiy va psixologik jihatlari ham muhim rol o‘ynaydi. Bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini shakllantirish quyidagilar orqali amalga oshiriladi:

1. Shaxsiy-psixologik barqarorlik va ichki motivatsiyani qo‘llab-quvvatlash
2. Madaniy kontekst va ijtimoiy faoliyatga uyg‘unlashtirish
3. Texnologik va pedagogik innovatsiyalarga tayyorlik
4. Refleksiv salohiyatni rivojlantirish.

Innovatsion talim muxitida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirishga qaratilgan tizimli model – bu oliy ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishga xizmat qiluvchi integrativ pedagogik konsepsiyadir. Mazkur model o‘z mohiyatiga ko‘ra, pedagogik, psixologik, ijtimoiy, texnologik va didaktik komponentlarni o‘zaro uyg‘unlashtirib, ta’lim jarayonida zamonaviy raqamli vositalar orqali kasbiy kompetentlikni shakllantirishni ko‘zlaydi. Uning har bir elementi maqsadga yo‘naltirilgan, ilmiy asoslangan va natijaga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi.

Bo’lajak o’qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy yondashuv va raqamli texnologiyalarni integratsiyalash orqali - kreativ fikrlash, kommunikativlik, tanqidiy tahlil, raqamli savodxonlik va o‘zini anglash kabi natijalarga erishishi mumkin.

XULOSA. Innovatsion talim muhitida bo‘lajak o’qituvchilarning kreativligini rivojlantirish bosqichlari dars jarayonida amalga oshiriladi va bu murakkab hamda uzoq muddat talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. U o‘z tarkibiga loyihalash, tayyorgarlik va o‘zlashtirish bosqichlarini qamrab oladi,

bo‘lajak o’qituvchilarning shaxsiy hayoti va kasbiy faoliyatdagi tajribasi o‘zini o‘zi takomillashtirish imkonini beradi.

Har bir o’qituvchining o’zini-o’zi rivojlantirishi va o’zini-o’zi namoyish eta olishi, kasbiy kompetentsiyalarni o’zlashtirib borishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog’liq. O’qituvchining kreativlik faoliyati pedagogik faoliyatning barcha turlarida namoyon bo’lishi davr talabidir. O’qituvchining kreativlik faoliyati bu avvalo, pedagogik mahorat bilan bog’liq degan umumiy xulosani shakllantiradi.

Shuni ta`kidlash lozimki, kelajagimiz egalari bo’lmish yosh avlodni zamon talablari darajasida o’qitish kelajakda barkamol inson, mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida tarbiyalashdek murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal etish ko’p jihatdan pedagogning kasbiy mahorati, bilimdonligi, ijodkorligi, pedagogik va innovatsion axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanib o’quv - tarbiya jarayonini tashkil etishi va boshqarishiga bog`liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sternberg R.J. Creativity and Education. – New York: Cambridge University Press, 2006.
2. Beghetto R.A., Kaufman J.C. Nurturing Creativity in the Classroom. – Cambridge: Cambridge University Press, 2010.
3. Xutorskoy A.V. Pedagogik innovatika. – Moskva: Akademiya, 2016. – 256 b.
4. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2016. – 240 b.
5. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2018. – 280 b.
6. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent: Fan, 2015. – 196 b.